gani aniqlandi. Shu bilan birga, kommunikativ stress, agressiv diskurs va boshqa mikroekolingvistik omillar til muhitining ekologik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi asoslandi. Emotsional lingvoekologiya esa zamonaviy kommunikativ makonni sog'lomlashtirish, nutq madaniyatini barqaror rivojlantirish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda muhim nazariy platforma sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, makro va mikroekolingvistik yondashuvlarning uyg'unligi tilning ekologik holatini kompleks baholash hamda uning barqaror taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Kelgusida ekolingvistik tadqiqotlarni raqamli diskurs, media makon va korpus materiallari asosida chuqurlashtirish ilmiy natijalarning empirik asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Haugen E. The Ecology of Language. Stanford, Stanford University Press, 1972, 366 p.

(2). Halliday M.A.K. New Ways of Meaning. The Challenge to Applied Linguistics. Journal of Applied Linguistics, 1990, vol. 6, p. 7–36.

(3). Mühlhäusler P. Linguistic Ecology. Language Change and Linguistic Imperialism. London, Routledge, 1996, 279 p.

(4). Haarmann H. Language in Ethnicity. A View of Basic Ecological Relations. Berlin, Mouton de Gruyter, 1986, 270 p.

(5). de Swaan A. Words of the World. The Global Language System. Cambridge, Polity Press, 2001, 253 p.

(6). Calvet L.-J. Towards an Ecology of World Languages. Cambridge, Polity Press, 2006, 209 p.

(7). Марусенко М.А. Глобальная лингвистика. Москва, Флинта; Наука, 2015. 320 с.

Kushmanov Jasur Bahodirovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD); email: jasur.k@urdu.uz),

Shomurotova Hilola Axmadjon qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi stajyor o'qituvchisi; email: hilola.shomuratova@urdu.uz)

BEVOSITA TARJIMADA PRAGMATIK MUAMMOLAR: NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bevosita tarjimada yuzaga keladigan pragmatik muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsadning saqlanishi, madaniy kontekstning uzatilishi kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Maqolada bevosita tarjimada pragmatik muammolarning kelib chiqish sabablari aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *bevosita tarjima, pragmatika, pragmatik ekvivalentlik, kommunikativ maqsad, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, lingvopragmatika.*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЯМОГО ПЕРЕВОДА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В этой статье анализируются прагматические проблемы прямого перевода с теоретических и практических точек зрения. Исследование рассматривает такие вопросы, как прагматическое эквивалентность, сохранение коммуникативной цели и передача культурного контекста. В статье выявляются причины прагматических проблем при прямом переводе и предлагаются решения. Результаты исследования вносят вклад в развитие теории и практики перевода.*

Ключевые слова: *прямой перевод, прагматика, прагматическая эквивалентность, коммуникативная цель, культурный контекст, стратегии перевода, лингвопрагматика.*

PRAGMATIC PROBLEMS IN DIRECT TRANLATION: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Annotation*. This article analyzes pragmatic problems in direct translation from theoretical and practical perspectives. The study examines issues such as pragmatic equivalence, preservation of communicative purpose, and transfer of cultural context. The article identifies the causes of pragmatic problems in direct translation and proposes solutions. The research findings contribute to the development of translation theory and practice.*

Keywords: *direct translation, pragmatics, pragmatic equivalence, communicative purpose, cultural context, translation strategies, linguopragmatics.*

Kirish. Zamonaviy tarjimashunoslikda pragmatik muammolar alohida o'rin tutadi. Bevosita tarjimada asl matnning pragmatik xususiyatlarini to'liq yetkazish tarjimonlar oldida turgan murakkab vazifalardan biri hisoblanadi.[1] Pragmatika – tilshunoslikning nutq aktlari, kommunikativ maqsad va kontekstni o'r-

[1] Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".

ganuvchi sohasi bo‘lib, tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.[1] Har bir belgi, shu jumladan, tilda bo‘lgan belgilar uch tomondan ko‘rilishi kerak: sintaksis, ya’ni, belgilar orasidagi munosabatlar; semantika, ya’ni belgi va haqiqiy holat orasidagi munosabat; va pragmatika, ya’ni belgi va uning foydalanuvchilari orasidagi munosabat sanaladi. Har qanday tarjima qilinayotgan matn u yoki bu tilda to’liq ifoda mazmunida kamchilik kuzatilishi yoki bir qancha to’siqlarga uchrasgi mumkin. Bu ifoda tarjima so‘zining amaliyotdagi muammolari haqida gapiradi. Bunga madaniy tafovutlar, idiomalar, atamalar va uslubiy farqlar kiradi.[2] Pragmatik moslashuv asl nusxadagi kommunikativ ta’sirni saqlash uchun tarjimada ma’lumotni o‘zgartirish yoki qayta ishlash zarurati hisoblanadi. Bevosita tarjimadagi asosiy pragmatik muammolarga quyidagilar kiradi:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmatik jihatlar tarjima nazariyasida tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

Ekvivalentlik nazariyalari. Y.Nayda (1969, 1982) semantik va dinamik ekvivalentlik tushunchalarini ilgari surgan. Uning fikricha, dinamik ekvivalentlik asl matn va tarjima matni o‘rtasida bir xil ta’sirni hosil qilishni nazarda tutadi. Nayda va Taber (1982) “The Theory and Practice of Translation” asarida tarjimaning asosiy maqsadi mazmunni emas, balki ta’sirni uzatish ekanligini ta’kidlaydilar.[3]

Keyinchalik, V.Komissarov (1990, 2002) pragmatik ekvivalentlikni alohida kategoriya sifatida ajratdi. Uning “Zamonaviy tarjimashunoslik” (2002) asarida pragmatik ekvivalentlik – bu asl matn va tarjima matni o‘rtasida kommunikativ ta’sir jihatidan tenglikka erishish sifatida ta’riflanadi.[4] Komissarov pragmatik adaptatsiyaning turli xil kontekstlarda qo‘llanishini ko‘rsatib bergan. Pragmatik yondashuv. A.Noybert pragmatik ekvivalentlikni tarjimaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezon sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, grammatik va leksik to‘g‘rilik pragmatik muvofiqliksiz tarjimaning sifatini kafolatlay olmaydi.[5] M.Baker (2018) “In Other Words: A Coursebook on Translation” kitobida kommunikativ tarjima nazariyasida pragmatik jihatlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. U tarjimonning vazifasi nafaqat ma’noni uzatish, balki asl matnning kommunikativ maqsadini saqlab qolishdan iborat ekanligini qayd etadi.[6] Baker pragmatik muammolarni hal qilishda kontekstning rolini chuqur tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu muammolarni hal qilish uchun, ko‘pincha, “pragmatik moslashuv” usulida foydalanib, matnni maqsadli til va madaniyatga moslashtiradilar. Bu esa tarjimaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Pragmatik moslashuv bu tarjima jarayonida asl matnning mazmuni va muallif niyatini saqlagan holda, uni maqsadli til vakillari (kitobxon yoki tinglovchi) tushunishi va qabul qilishi uchun moslashtirish jarayonidir. Bevosita tarjimadan farqli o‘laroq, pragmatik moslashuvda so‘zlarning lug’aviy ma'nosidan ko‘ra ularning funksiyasi va ta’siri birinchi o‘ringa chiqadi. Pragmatik moslashuv ko‘pincha og’zaki tarjimada, ayniqsa, ketma-ket tarjimada, tarjimon bevosita muloqotda ishtirok etganda va muloqot holatini baholay oladigan, ish jarayonida tuzatishlar kirita oladigan, muloqot ishtirokchilariga savol bera oladigan holatlarda zarur bo‘ladi. Bevosita tarjimada pragmatik muammolar asosan asl til va maqsad til o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy va kommunikativ farqlar tufayli yuzaga keladi. Hozirgi kunda bevosita tarjimada pragmatik jihatlarning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Pragmatik ekvivalentlik bu asl matn va tarjima matni o‘rtasida kommunikativ ta’sir jihatidan tenglikka erishishdir. A.Noybert pragmatik ekvivalentlikni tarjimaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezon sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, grammatik va leksik to‘g‘rilik pragmatik muvofiqliksiz tarjimaning sifatini kafolatlay olmaydi. Bevosita tarjimada pragmatik muammolarning turlari haqida to‘xtalsak bevosita tarjimada quyidagi pragmatik muammolar kuzatiladi:

a) nutq aktlarining noekvivalentligi. Turli tillarda bir xil kommunikativ maqsadni ifodalash uchun turli nutq aktlari qo‘llaniladi. Masalan, ingliz tilidagi “Could you pass the salt?” so‘roq shaklidagi iltimos o‘zbek tilida “Tuzni bering” shaklida buyruq kabi ifodalanishi mumkin. Bu holda pragmatik muvofiqlikka erishish uchun tarjimon nutq aktining shakli emas, balki uning vazifasini saqlab qolishi lozim;

---

[1]Saidqodirova D.S. Tarjimada kommunikativ-pragmatik aspektning ahamiyati. “Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyaning amaliyotga tatbiqi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani, 1358–1361-betlar.

[2] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018, 332 pages.

[3] Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. Vol. 3, Speech Acts, New York, Academic Press, 1975, 41–58 p.

[4] Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, Brill, 1982, 218-bet.

[5] Komissarov V.N. (2002). Zamonaviy tarjimashunoslik. 56–58-betlar.

[6] Nida E.A., Taber C.R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J.Brill.

b) presuppozitsiya farqlari. Har bir til va madaniyatda ma'lum presuppozitsiyalar – oldindan taxmin qilinadigan bilimlar mavjud. Asl matndagi presuppozitsiya maqsad til kitobxoniga notanish bo'lishi mumkin, bu esa pragmatik muammolarni keltirib chiqaradi.

Tahlil va natijalar. Bu gap shaklan savol bo'lsada, pragmatik jihatdan u bilvosita iltimos, ya'ni derazani yopish yoki isitishni yoqish haqida nazarda tutilgan. So'zma-so'z tarjima: "Bu yerda sovuq, shunday emasmi?"–pragmatik jihatdan noto'g'ri bo'lishi mumkin. Pragmatik jihatdan muvofiq tarjima: "Sovuq bo'lyapti, derazani yopib qo'ysak bo'ladimi?" yoki kontekstga qarab, "Sovuq ekan" (implitsit iltimos sifatida). Ushbu misol pragmatik adaptatsiya strategiyasining qo'llanishini namoyish etadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot bevosita tarjimada pragmatik muammolarning mohiyatini ochib berdi va ularni hal qilish yo'llarini ilmiy asoslab berdi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, bevosita tarjimada pragmatik ekvivalentlikka erishish semantik va grammatik ekvivalentlikdan kam ahamiyatli emas. Tarjima nafaqat tillar orasidagi o'tkazish emas, balki madaniyatlar, kontekstlar va kommunikativ vaziyatlar orasidagi ko'prik hisoblanadi. Pragmatik jihatlar e'tibordan chetda qoldirilganda tarjima kommunikativ jihatdan nomuvofiq, sun'iy yoki tushunarsiz bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, bevosita tarjimada pragmatik muammolar tizimli harakterga ega. Ular asosan besh asosiy turga bo'linadi: nutq aktlari noekvivalentligi, presuppozitsiya farqlari, implikaturalarning uzatilishi, xushmuomalalik strategiyalari farqi. Har bir tur o'ziga xos yechimni talab qiladi.

Uchinchidan, pragmatik muammolarni hal qilishda to'rtta asosiy strategiya samarali ekanligi aniqlandi: pragmatik adaptatsiya (shakl o'zgartiriladi, lekin kommunikativ funksiya saqlanadi), eksplikatsiya (yashirin ma'lumot aniq qilinadi), kompensatsiya (bir joyda yo'qolgan pragmatik xususiyat boshqa joyda qaytariladi) va madaniy almashtirish (bir madaniyatga xos element boshqasidagi ekvivalent bilan almashtiriladi).

To'rtinchidan, tarjimonning pragmatik kompetensiyasi – har ikki tilning pragmatik tizimini chuqur bilish, madaniy kontekstni tushunish va kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati bevosita tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tarjimon nafaqat tillar tizimini, balki madaniyat, kontekst va kommunikativ vaziyatni ham hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".

(2). Saidqodirova D.S. Tarjimada kommunikativ-pragmatik aspektning ahamiyati. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyaning amaliyotga tatbiqi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani: 1358–1361-betlar.

(3). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018., 332 p.

(4). Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. Vol. 3, Speech Acts. New York, Academic Press, 1975, 41–58 pegas.

(5). Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, Brill, 1982, 218-bet.

(6). Komissarov V.N. (2002). Zamonaviy tarjimashunoslik. Moskva, ETS.

(7). Nida E.A., Taber C.R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J.Brill.

(8). Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".

(9). Nida E.A., Taber C.R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J.Brill.

(10). Komissarov,V.N. (1990). Tarjima nazariyasi. Moskva, "Visshaya shkola".

(11). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 318-bet.

(12). Munday J. Introducing Translation Studies. Theories and Applications. London, Routledge, 2016, 374 p.

Mustofoqulov Farhod Xolmurod o'g'li (Samarqand davlat Chet tillar instituti "Fransuz filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail: farhodmustodoqulov@gmail.com)

NORMANDIYA REGIONIDAGI TURIZM OBYEKTI NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Normandiya regionidagi turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganuvchi lingvokulturologik yondashuv hamda onomastik va toponimik tahlil usullariga tayangan holda olib borildi. Maqolada joy nomlari nafaqat geografik belgi, balki tarixiy xotira, mintaqaviy identitet, madaniy meros va turistik diskursning muhim komponenti sifatida talqin qilinadi. Normandiyadagi turizm obyektlari nomlarida roman, gallo-rim, skandinav va norman madaniy qatlamlar izlari saqlanib qolganligi ko'rsatildi. Shuningdek, bu nomlar hududning lingvistik manzarasi va turistik jozibadorligini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi asoslandi.*